



Ma'suma Ibroximova

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti "O'rta asrlar tarixi" bo'limi kichik ilmiy xodimi.

E-mail:

abdufattoyevamasuma@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17648921>

G'AZNAVIYLARDA PUL MUNOSABATLARI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada G'aznaviylar davlatida pul munosabatlarining shakllanishi, rivoji va o'ziga xos xususiyatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda G'aznaviylar davrining asosiy iqtisodiy jarayonlari, metall tangalarning sifati, og'irligi va tarkibidagi o'zgarishlar ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar. G'aznaviylar, pul muomalasi, dinor, dirham, jital, numizmatika, Mahmud G'aznaviy, Mas'ud G'aznaviy, zarbxona, tangashunoslik, iqtisodiy tizim, Hindiston, saljuqiylar.

Kirish. G'aznaviylar X asr oxiridan XII asr oxirigacha hozirgi Afg'onistonning katta qismini, Pokiston, Eron va Markaziy Osiyoning bir qismida hukmronlik qilgan turkiy sulola edi. Bu sulolaga Somoniylar lashkarboshisi bo'lgan Sabuqtegin asos solgan. 977 yilda Sobuqtegin G'azna viloyatining noibi va lashkar amiri etib tayinlangach, u bu mulklarni mustaqil boshqarishga kirishgan. Sulola nomi poytaxt G'azna shahri nomi bilan G'aznaviylar deb yuritiladi. G'aznaviylar sulolasi turk – islom

madaniyatining, ayniqsa, turkiy davlatchilik an'analari, ma'daniyati, san'atining Hindiston, Afg'oniston va o'zlari egallagan boshqa ulkan mintaqalarga kirib borishi va keng yoyilishida muhim ahamiyat kasb etdi. G'aznaviylar o'z hukmronligi davrida samarali markazlashgan boshqaruvni o'rnatdilar va madaniyat, maorif va iqtisod sohalarida ko'plab yangicha islohotlarni amalga oshirdilar.

Asosiy qism. XI-XIII asrlar pul munosabatlarida o'ziga xos ikkita jihat mavjud. Birinchisi, bu avvalgi davrlarga qaraganda oltin pullarga, oltinga bo'lgan talabning ortganligi bo'lib, ularning pul munosabatlaridagi o'rni ancha o'sgan va Turkistonning bir necha shaharlarida oltin pullar zarb etilgan. Ikkinchi o'ziga xos xususiyat esa, kumush tangalar qiymatining tushib ketishi. XI asrdan boshlab, Sharq mamlakatlarida kumush tangalar tarkibidagi kumush miqdori nihoyatda pasayib ketgan. Ushbu sifatsiz pullarni Yevropa bozorlari qabul qilmaydi. Ularning amal qilish hududi torayib, asosan ular zarb qilingan mamlakatda savdo munosabatlaridagina foydalanilgan. Biroq, g'aznaviylar davlatida aksincha kumush tangalar qiymati ancha yuqori bo'lgan. Buning sababi, Mahmud va Mas'ud G'aznaviy tomonidan Hindistonga qilingan bir necha yurishlar natijasida g'azna kumush va oltin bilan ancha to'ldirilganligida edi. Kumush tangalar – “dirham”, tilla tangalar – “dinor”, mis chaqalar – “fuls” deb yuritilgan. G'aznaviylar davrida zarb qilingan tangalar o'zining yuqori sifati, metall miqdorining barqarorligi, aniq og'irligi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning ichki bozorda keng qabul qilinishi va boshqa davlatlar, xususan, Hindiston va Eron hududlarida muomalada yurishiga sabab bo'lgan. Tadqiqotchilar g'aznaviylar tangalarining Hindiston shimolida uzoq vaqt pul muomalasida ishlatilganini tasdiqlaydi.

G'aznaviylar hukmronligining ilk davrlarida qanchalik kuchli va qudratli bo'lmasin somoniylarni oliy hukmdor deb hisoblaydi. Bu ularning tangalarida ham aks etadi. Ular o'z nomlari bilan bir qatorda, Somoniylar podshosi (ya'ni oliy hukmdor) nomini ham tangaga yozganlar. Sobuqtegin zarb etgan etgan tangalarda xalifa nomi, Somoniy hukmdor nomi va o'zining “al-mujahhid”, “nosir al-davla” unvonlari ham aks etgan [1]. Faqat

999 – yildan boshlab G‘aznaviylar o‘zlarini mutlaqo mustaqil hukmdor deb e‘lon qilganlar. Bu o‘zgarish Mahmudning shu yildagi tangalarida yaqqol ko‘rinadi: unda Somoniylar nomidan butunlay voz kechiladi va Mahmud o‘ziga “amir” unvonini oladi. Mahmudning ko‘plab tangalarida u bosib o‘tgan turli bosqichlar aks etgan. Uning hukmronlik davridagi rasmiy unvonlari, maqomlari va sharaflı nomlari tangalarda to‘liq qayd etilgan. Masalan:

- 994-yilda Somoniy hukmdori Nuh ibn Mansur unga “Sayf ad-Davla” (Davlat qilichi) degan unvon beradi.

- Keyinroq u “Yamin ad-davla” (davlatning o‘ng qo‘li) va “Amin al-millat” (millat ishonchi) kabi faxriy unvonlarga ega bo‘ladi. Bu unvonlar unga Abbosiy xalifasi Qodir Billoh tomonidan berilgan.

- Shuningdek, u “Nizom ad-din” (din tartibchisi), “Malik al-mamalik”

- Oxirgi bosqichda esa barcha unvonlarni olib tashlab, faqat “Mahmud” nomi bilan chiqadigan tangalar paydo bo‘ladi.

Qiziqarli tomoni shundaki, tangalarning birortasida u Hindistonga qilgan yurishlaridan keyin olgan “g‘oziy” unvonini ishlatmaydi. Bu holatdan kelib chiqib aytish mumkinki, bu nom unga keyinroq, ehtimol tarixchilar tomonidan nisbatan kechroq davrda berilgan va o‘sha davrda ommaviy ishlatilmagan bo‘lishi mumkin. Tarixiy manbalarga ko‘ra, aynan Mahmud G‘aznaviy birinchi musulmon hukmdor sifatida “**sulton**” unvonini tanga yuzasida ishlatgan[2]. Gardiziyning “Zayn al -axbor” asarida ham Mahmud o‘zini xalifaning amiri deb e‘lon qilib, ilk bor “sulton” unvonini ishlata boshlaganligi haqida keltirilgan[3].

G‘aznaviylarning ayrim tangalarida hind ramzlari ham uchraydi. Jumladan, bu tangalarda hinduizmga muqaddas sanalgan Shiva buqasi — “Nandi” tasvirlangan bo‘lib, musulmon hukmdorlar tomonidan hindu buqasining tangalarda aks etishi ilk qarashda ajablanarli tuyuladi. Axir, islomda butparastlik qat’iy rad etilgan. Lekin ushbu holatni yaxshiroq tushunish uchun g‘aznaviylarning umumiy iqtisodiy siyosatiga qarash kerak. G‘aznaviylar biror yangi hududni zabt etgach, u yerdagi mavjud pul tizimini saqlab qolishga harakat qilganlar. Bu orqali moliyaviy barqarorlikni

saqlab qolishgan. Masalan, Sobuqteginning Bomiya'da zarb qilgan tangalari Somoniylar tangalaridan og'irligi va o'lchami jihatidan farq qiladi — ular mahalliy Qobul tangalariga o'xshaydi. Mahmudning G'aznadagi tangalari ham shu tarzda farq qiladi, ammo Nishopurdagi zarb esa boshqa uslubda. Demak, G'aznaviy hukmdorlari har bir viloyatda mavjud bo'lgan tangalarni “avvalgidek” saqlab qolgan, faqat o'z ismlarini qo'shgan. Bunday holatda ular buqa tasvirli tangani yaratmagan, balki mavjud hindu tangalariga o'z ismlarini qo'shib, ularni yangidan zarb qilgan. Bu hodisani “but tasvirli musulmon tanga” deb emas, balki “hindu tangasini musulmon hukmdor nomi bilan yangilanishi” deb ko'rish to'g'ri bo'ladi.

Mahmud G'aznaviyga tegishli bo'lgan yana bir – noyob bilingual (ya'ni ikki tilda yozilgan) tanga alohida e'tiborga loyiq. Tanganing “aversi” ya'ni old tarafida – arab tilida, kufiy yozuvida 4 qator, shahodat kalimasi undan so'ng “Yamin ad – davla Mahmud va amin al-millat” so'zlari yozilgan. Pastki qismiga “Bismillah duriba hadha'l-dirham bi-Mahmudpur sanai tis'a 'ashr va arba'mi” ya'ni “Ollohning nomi bilan bu tanga 419 – yilda Mahmudpurda bosildi” degan yozuv bo'lgan[1, 480-481p.]. Undan so'ng abbosiy xalifa nomi keltirilgan. Orqa tarafida esa - sanskrit tilida, Sharada yozuvida, 4 qator “avyaktam eka / muhammada a / vatar nrpa / ti mahamud” “Ko'rinmas va yagona zot: Muhammad uning elchisi. Mahmud podshoh uning izdoshi” yozuvi uning tagida tanganing zarb etilgan joyi va yili ko'rsatilgan. Olimlar orasida ushbu yozuvni Abu rayhon Beruniy sanskritchaga o'g'irgan degan tahminlar mavjud. Bu tahminlarda jon bor desak bo'ladi, chunki, Beruniy Mahmud G'aznaviyning Hindistonga yurishlarida doim hamrohlik qilgan. Shuningdek, olim sanskrit tilini, hindlarning asosiy falsafiy tushunchalarini juda yaxshi bilgan. Tangadagi sanskritcha matnda ham hindlarining chuqur falsafasini ifodalovchi “avyaktam” (ko'rinmas), “avatar” (payg'ambar ma'nosida), “nripati” (hukmdor) kabi so'zlar tanlab olingan. Ushbu tangalarning nega aynan ikki tilda va faqat Lahorda zarb etilganligi tog'risida aniq bir tarixiy ma'lumot yo'q. Ma'lumki, Lahor 1021-yilda g'aznaviylar tomonidan zabt etilib, unga Mahmud G'aznaviyning sarkardasi Malik Ayaz noib etib tayinlanadi[4].

Lahor bosib olingandan keyin 5-6 yil ichida Gʻazna bilan birga mamlakatning Sharqiy chegaralaridagi “egizak” poytaxtga aylandi. Mahalliy hindlar arab tilini tushunmasdilar. Shuning uchun, oʻzlarini hindlarga tanishtirish, mahalliy aholi va turkiylarning assimilyatsiyasiga erishish hamda islom dinini yoyish maqsadida Mahmud Gʻaznaviy ikki tilda tanga zarb etish siyosatini amalga oshirdi. Yoki, bu tanga Hind yerlarida mahalliy aholiga Mahmudning buyukligini va uning unvonlarini ularning ona tilida tushuntirish uchun chiqarilgan boʻlishi ham mumkin. Har holda, bu tanga mahalliy aholining ishlatadigan yozuvi orqali hukmdorning qudratini koʻrsatish niyatida yaratilgan, deb aytish mumkin. Bundan tashqari “Tarixi Bayhaqiy”da Mahmud Gʻaznaviyning oltindan yasalgan butlarni eritib undan tanga zarb qildirgani haqida ham maʼlumotlar keltiriladi[5]. Biroq tanganing shakli qayerda zarb ettirilganligi haqida biror soʻz yuritilmaydi.

Sulton Masʼud Gʻaznaviy (1030-1041) dirhamlaridan kumushning miqdori 70% dan ortiq edi. Tangadagi mis aralashmasi 25-27% dan oshmasdi. Gʻaznaviylar davrida hatto, tarkibi 95% kumushdan iborat boʻlgan dirhamlar ham mavjud boʻlgan[6]. Sulton Masʼuddan keyingi davrda bu tizimda oʻzgarishlar yuz berdi. Sulton Masʼud davrida kumush dirhamlar odatda 3,2-3,4 gramm atrofida boʻlgan, oltin dinorlar esa 4 grammga yaqin ogʻirlikda zarb etilgan. Biroq undan keyingi hukmdorlar – xususan Mavdud ibn Masʼud (1041–1050) davridan boshlab tangalarning ogʻirligi pasayib, 2,5–3, gramm oraligʻida boʻlgan dirhamlar keng tarqaldi[7]. Bu pul ogʻirligining kamaytirilishi oʻz navbatida muomaladagi tangalarning qadri tushishiga olib keldi. Metall tarkibida ham sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi. Kumushning sof ulushi kamayib, unda mis va boshqa arzon metallarning ulushi oshdi.

Hindistonda Mahmud tomonidan zarb etilgan kumush tangalar oʻrniga endi “jital” deb nomlangan yengil, past qiymatli tangalar muomalaga kiritildi. Bu tangalar koʻpincha hindcha motivlarda — masalan, otliqlar va buqalar tasviri bilan bezatilgan. Jital tangalar ichki bozor va maishiy muomalada keng foydalanilgan. Hindiston bozorlarining oʻziga xos

talablariga moslab ishlab chiqilgan bu tangalar gʻaznaviylar iqtisodiy siyosatining mintaqaviy moslashuvchanligini aks ettiradi.

Gʻaznaviylar tangalari nafaqat iqtisodiy qiymatga, balki siyosiy ramziy ahamiyatga ham ega boʻlgan. Masʼud davrida zarb etilgan tangalarda “sultan al-muazzam”, “Nasir ad-din Masʼud” kabi unvonlar bilan birga Abbosiy xalifasi nomi ham keltirilgan boʻlib, bu ularning diniy qonuniylik va mustaqil hukmronlik iddaosini bildirgan boʻlsa, XI asrning ikkinchi yarmiga kelib, ayniqsa Ibrohim ibn Masʼud (1059–1099) hukmronligi davrida, saljuqiylar bilan siyosiy aloqalarning mustahkamlanishi Gʻaznaviy tangalarida ham sezilarli iz qoldirdi. Saljuqiylar oʻzining markaziy hokimiyatini mustahkamlab borar ekan, Gʻaznaviy hukmdorlari ularning siyosiy hukmronligini tan olishga majbur boʻldilar. Bu holat tangalardagi yozuvlar va titulaturalarda yaqqol namoyon boʻldi. Masalan, Ibrohim davrida zarb etilgan baʼzi tangalarda “sultan al-aʼzam”, “malik al-muzaffar” kabi saljuqiylarga xos unvonlar bilan birga, ayrim tangalarda Saljuq sultoni Malikshohning nomi keltirilganligi ham kuzatiladi [8]. Bu oʻzgarishlar gʻaznaviylarning siyosiy jihatdan mustaqil hukmdorlar emas, balki saljuqiylarga qaram boʻlib qolayotganini anglatadi. Yana bir muhim jihat shundaki, ushbu unvonlar orqali gʻaznaviylar oʻz hokimiyatini diniy qonuniylik asosida emas, balki saljuqiylar bilan boʻlgan ittifoq orqali mustahkamlashga harakat qilganlar. Tangalar endi xalifa nomiga tayanmasdan, real siyosiy kuch egalariga - yaʼni saljuqiylarga ishora qiluvchi vositaga aylangan.

Gʻaznaviylar tangalari zarb etilgan zarbxonalarga keladigan boʻlsak, ular turli-tuman shaharlarda zarb qilingan.

Gʻazna - gʻaznaviylar poytaxti boʻlgan bu shahar asosiy zarbxona sifatida faoliyat yuritgan. Mahmud Gʻaznaviy va uning vorislari davrida koʻplab dinor va dirhamlar aynan Gʻazna zarbxonasida zarb etilgan. Tangalarda odatda “zarbi Gʻazna” yozuvi uchraydi [9].

Lahor – Mahmud Gʻaznaviy tomonidan Hindistonga yurishlar natijasida qoʻlga kiritilgan bu shahar muhim iqtisodiy va siyosiy markazga

aylangan. Mas'ud va uning vorislari Lahor zarbxonasida ko'plab tangalar zarb etgan.

Balx – Shimoliy Afg'onistondagi qadimiy shahar g'aznaviylar nazorati ostiga o'tgan davrda zarbxona sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ba'zi dirhamlarda “zarbi Balx” yozuvi mavjud.

Nishopur – g'arbiy Xurosondagi bu shahar g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasidagi kurashlar davrida qisqa muddat g'aznaviylar qo'l ostida bo'lgan. Bu yerda Farruhzod Mas'ud davrida zarb etilgan tangalar topilgan. Bundan tashqari Hirot, Marv, Bust, Bomiyon, Mo'lton, Lashkar, Seyiston, Sayram, Andaraba, Nandana kabi shaharlarda ham zarbxonalar mavjud bo'lgan. Bu zarbxonalar g'aznaviylar imperiyasi keng hududga tarqalganini va ularning iqtisodiy faoliyati juda ko'p markazlarga tayanib turganini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, g'aznaviylar tanga-pul tizimi o'z davrida nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular yuqori sifatli oltin, kumush va mis tangalar zarb etib, ichki bozorda va xalqaro savdoda barqaror pul muomalasini ta'minlaganlar. Mahmud G'aznaviy davrida mustaqil hukmdorlik ramzi sifatida “sulton” unvonining ilk bor tangalarda aks etishi, ikki tilli (arabcha-sanskritcha) tangalarning yaratilishi, mahalliy pul tizimlarini moslashuvchanlik bilan saqlab qolish siyosati bu sulolaning iqtisodiy pragmatizmi va siyosiy donoligidan dalolat beradi. Sulton Mas'ud davrida kumush tarkibining yuqoriligi, keyingi hukmdorlar davrida esa og'irlik va metall sifatining pasayishi iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Zarbxonalarining ko'plab shaharlar bo'ylab joylashgani esa g'aznaviylar davlatining keng hududi va iqtisodiy qudratini yoritadi. Umuman, g'aznaviylar tangalari o'z davrining iqtisodiy barqarorligi, siyosiy o'zgarishlari va madaniy aloqalarining muhim tarixiy manbasi hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Edward Thomas, Coins of Kings of Ghazni, JSTOR. Vol.17. 1860. – P. 480-481.

2. Mitchiner, Oriental Coins and their Values. London. 1977, vol. 3. – P. 388.
3. زين الاخبار، تهران، ۱۳۴۷، ص. ۶۸.
4. Neslihan Durak, Hindistn'a Kuzeyden Yapılan Seferler, ASAM Yayınları, Ankara, 2000. – S. 29.
5. Abulfazl Bayhaqiy. Tarixi Bayhaqiy. Tehron, 1945. – B. 512
6. E. A. Davidovich and A.H. Dan. Coinage and the monetary system. History of civilizations of Central Asia, Vol. 4. 1998. – P. 407.
7. Lane-Poole, S. Catalogue of Muhammadan Coins in the British Museum – The Coins of the Ghaznavids. London, 1892.92
8. Bosworth, C. E. The Later Ghaznavids: Splendour and Decay: The Dynasty in Afghanistan and Northern India 1040–1186. Edinburgh, 1977. – P. 102-104.
9. Treadwell, W. The Chronology of Ghaznavid Coinage. In: Numismatic Chronicle, Vol. 161, 200. – P. 191- 230.

ДЕНЕЖНЫЕ ОТНОШЕНИЯ ПРИ ГАЗНЕВИДАХ

Аннотация. В данной статье анализируются формирование, развитие и основные особенности денежного обращения государства Газневидов на основе исторических источников и нумизматических данных. В исследовании раскрываются экономические процессы периода правления династии, изменения веса и металлосоостава динаров и дирхамов, а также политико-культурное значение монетного дела.

Ключевые слова: Газневиды, денежное обращение, динар, дирхам, джитал, нумизматика, Махмуд Газневи, Масуд Газневи, монетный двор, нумизматическое дело, экономическая система, Индия, Сельджуки.

MONETARY RELATIONS IN THE GHAZNAVID DYNASTY

Abstract. This article examines the formation, development, and distinctive features of the monetary system of the Ghaznavid state based on historical sources and numismatic evidence. The research analyzes the economic processes of the period, variations in the weight and metallic composition of dinars and dirhams, as well as the political and cultural significance of the Ghaznavids' minting policy.

Keywords: Ghaznavids, monetary circulation, dinar, dirham, jital, numismatics, Mahmud of Ghazni, Masud of Ghazni, minting, coinage studies, economic system, India, Seljuks.